



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 11-mart, chorshanba,
22 (24.202)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Yer
boylikning
onasi bo'lsa,
otasi -
mehnat

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



AYOLGA EHTIROM

Xalqaroxotin-qizlar kuni
viloyatimizda keng nishonlandi



Prezidentimizning bayram arafasida qabul qilingan farmoniga ko'ra, o'zining samarali mehnati, boy bilim va tajribasi bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirok etib kelayotgan xotin-qizlardan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan edi.

Jumladan, viloyatimizdan 5 nafar fidoyi xotin-qizlar yuksak unvon, orden va medallarga sazovor bo'ldi.

Viloyat hokimligida ushbu mukofotlarni top-

shirish marosimida viloyat hokimi A. Boboyev mukofotlanganlar va tadbir ishtirokchilarini bayram bilan tabrikkladi hamda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rnini e'tirof etdi.

— Bugungi kunda viloyatimizda 4400 nafardan ortiq ayollar rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bormoqda, — dedi A. Boboyev. — Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining 22 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. 20 nafarga yaqin opa-singillarimiz "Rahbar ayollar maktabi"da malaka oshirib,

turli sohalarda samarali mehnat qilmoqda.

Shundan so'ng o'tkazilgan bayram tadbirida turli sohalarining ilg'or xotin-qizlari, ijtimoiy ko'makka muhtoh ayollarga ehtirom ko'rsatildi.

Fidoyi va tashabbuskorligi bilan boshqalarga namuna bo'lib kelayotgan opa-singillarimizdan 19 nafari "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, bir guruh xotin-qizlarga viloyat hokimining faxriy yorliqlari topshirildi.

Alisher ISROILOV olgan suratlar.



Viloyat sudining YANGI RAISI tanishtirildi

Kecha viloyat sudida navbatdan tashqari yig'ilish o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov, viloyat hokimi Adiz Boboyev hamda viloyat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar rahbarlari, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sud raislari va sudyalari ishtirok etdi.



Prezidentimizning joriy yil 3-martdagi farmoyishi bilan Dilshod Rajabov - Samarqand viloyati sudi raisi lavozimiga tayinlandi. Yig'ilishda yangi tayinlangan viloyat sudi raisi jamoaga tanishtirildi.

Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov va viloyat hokimi Adiz Boboyev shu paytgacha Samarqand viloyati sudi raisi lavozimida faoliyat yuritgan Olim Xayitovning ko'p yillik samarali mehnati hamda sud-huquq tizimini rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasini alohida e'tirof etdilar.

Yig'ilishda viloyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan fikrlar bildirildi.

"O'zbekiston – 2030"



O'zbekiston yaqin yillarda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" doirasidagi Davlat dasturi iqtisodiy o'sishni inson qadri bilan uzviy bog'lashga xizmat qiladi.

Takomillashgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida qabul qilingan dastur mamlakatimizda inson qadri ulug'lash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Jumladan, kelgusi yillarda iqtisodiyotimizni jadal o'stirib, soha va tarmoqlarni texnologik o'sish modeliga o'tkazish orqali 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollarga yetkazish, joriy yilning o'zida esa bu ko'rsatkichni 167 milliard dollarga olib chiqish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Buning natijasida O'zbekiston "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kiradi. Ushbu maqsadlar yo'lida iqtisodiy qudratimiz asosi bo'lgan eng ilg'or texnologiyalarga asoslangan yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat tarmoqlari rivojlantiriladi.

(Davomi 3-sahifada) >>>

Yirik ko'priklar shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shadi

2022-yildan buyon Abu Dabi Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "Samarqand shahrida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish" loyihasi amalga oshirib kelinmoqda.

Shu vaqtgacha "Me'mor Utkir Chovka" mas'uliyati cheklangan jamiyati Xitoyning "Shaanxi Road and Bridge Group Co., Ltd" konsorsiumi bilan hamkorlikda ishlab, Samarqand shahridagi Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasida yer osti transport tunneli, 2 ta yer osti piyodalar yo'lagining qurilish ishlari to'liq yakunlagan edi.

Gagarin va Rudakiy ko'chalari kesishmasidagi yo'l o'tkazgich qurilishi ham yakuniga yetkazilmogda. Mazkur tunnel qurilishida jami 729 dona beton qozloqlar qoqildi. Shuningdek, 680 metr uzunlikda panjara qurish ishlari yakunlandi. Loyihada ko'rsatilgan 54 dona 18 metrlik temir-beton balkalar to'liq montaj qilindi, tunnelning ichki tuprog'i chiqarilib, ochildi. Ayni vaqtda tunnel-

uchun temiryo'l ustidagi eski ko'priklar yonida yangi, zamonaviy yo'l o'tkazgich qurish rejalashtirilgan.

— Mazkur ko'priklar qurilishi boshlanganiga 3 oydan oshib qoldi, — deydi "Me'mor Utkir Chovka" mas'uliyati cheklangan jamiyati uchastka boshlig'i Hasan Jalilov. — Uzunligi 82 metr, eni 35 metr bo'lgan ko'priklarning asosi uchun 53 ta beton qozloqlarning qurilish-montaj ishlari bajarilib, 326,4 metr kub panjara qurish ishlari davom etmoqda. Yangi yo'l qurish uchun Matonat mahallasida joylashgan 100 dan ziyod aholi uy-joylari, shuningdek, korxona-tashkilotlarga qarashli omborxona va boshqa yordamchi binolar boshqa hududlarga ko'chirildi.

Loyiha asosida Siyob kanalining shu hudud-

dan o'tgan qismida zamonaviy ko'priklar qurish ishlari boshlab yuborildi. Uzunligi 198 metr, balandligi 13 metrni tashkil qiluvchi yo'l o'tkazgich kanal ustidan o'tib, yo'lni Ma'rifat mahallasi bilan bog'laydi. Ko'priklarning beton qozloqlari va panjalarining montaj ishlari davom ettirilmoqda. Obyektlarda 65 nafar ishchi va 26 ta maxsus texnikadan foydalanilmoqda.

Tunnel va ko'priklar qurish, yo'l hamda ko'chalarni

kengaytirib, rekonstruksiya qilish - bar-chasi shahrimizda yildan-yilga tig'izlashib borayotgan transport yuklamasini tartibga solib, aholi uchun qulayliklar yaratishni ko'zda tutadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.
Fazliddin RO'ZIBOYEV
olgan suratlar.**



ing ichki fasad ishlari bajarilmoqda. Tunnelning Rudakiy ko'chasidagi 2 ta yer osti piyodalar yo'lagining qurilishi 80 foizga bajarilgan. Quruvchilar yo'lakning ichki qismida so'nggi fasad ishlari olib borishmoqda.

Yirik loyihada Gagarin ko'chasini Motrid ko'chasiga olib chiqadigan 1,2 kilometrlik avtomobil yo'li ham qurilishi ko'zda tutilgan. Buning

TAYINLOV

**Rivojiddin
Jaloliddinovich
Makulov** – viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Bunga qadar R. Makulov viloyat hokimining birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i kotibiyati mudiri lavozimida faoliyat olib borgan.



13-14-mart kunlari yurtimizda "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkaziladi

KO'KSAROY MULOQOTI:

kelajak uchun safarbarlik

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ko'ksaroy qarorgohida mamlakat yoshlari bilan o'tkazgan muloqoti O'zbekistonning modernizatsiya yo'lidagi taraqqiyotida tub burilish nuqtasi bo'ldi. Davlat rahbari O'zbekistonning 22 millionlik yoshlari shunchaki demografik ko'rsatkich emas, balki milliy transformatsiyaning asosiy iqtisodiy va strategik harakatlantiruvchi kuchi ekanligini amalda ko'rsatib berdi.

Prezident strategiyasining negizida "muammolarni hal qilish" yondashuvidan proaktiv ekotizim yaratish modeliga o'tish yotadi. An'anaviy boshqaruv modelлари odatda demografik bosim inqirozga aylanishini kutib, so'ng chora ko'radi. Biroq Prezident Strategik prognozlash boshqaruvi tamoyilini amalda qo'llamoqda.

2030-yilga borib mehnat bozoriga har yili 1 million yoshlar kirib kelishini anglagan holda, bugunning o'zida qo'shimcha 200 million dollar mablag' ajratish orqali hukumat kelajak voqeligiga hozirdanoq infratuzilmani yaratmoqda. Bu proaktiv rahbarlikning eng yorqin ko'rinishidir, bugun ish beruvchilar avlodini tashkil etish bilan ertangi kunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ishsizlik muammolarining oldini olishdir.

Davlat rahbari o'tmishdagi ota-onalik ijtimoiy ta'minot modellari "tadbirkorlikka asoslangan boshqaruv" konsepsiyasi bilan samarali almashtirdi. Ushbu modelda davlat mamlakatning bosh inkubatori vazifasini bajaradi. O'zini o'zi band qilganlar uchun kredit limitining 300 million so'mgacha, kengayotgan korxonalar uchun esa 10 milliard so'mgacha oshirilishi yosh tadbirkorlarni jiddiy iqtisodiy subyekt sifatida ko'rish demakdir.

Bu global texnoparklarda qo'llaniladigan Lean Startup metodologiyasini eslatadi. Hukumat yuqoridan pastga



yo'naltirilgan byurokratiya emas, balki "Platforma-xizmat sifatida" tamoyili asosida harakat qilib, g'oya bosqichidayoq buxgalteriya, marketing va huquqiy maslahatlar beruvchi hududiy inkubatorlar orqali "profilaktik qo'llab-quvvatlash"ni ta'minlaydi. Bu esa loyihaning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydi.

Ushbu zamonaviy boshqaruv yondashuvining o'ziga xos jihati shundaki, unda ijtimoiy o'zgarishlarni tezlashtirishda fiskal rag'batlardan foydalanilishdir. Prezidentimizning tayyorlov markazlariga mulkini ijaraga bergan fuqarolarni daromad solig'idan ozod qilish hamda masofaviy ta'lim markazlari uchun ijtimoiy soliqni kamaytirish haqidagi qarorlari

Munosabat

yuqori darajadagi fiskal moslashuvchanlikni namoyish etadi. Bozorni majbur qilish emas, balki rag'batlantirish vositalari bilan ta'sir ko'rsatish orqali ma'muriyat ham bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning o'sishini jadallashtiradi, ham kuchli xususiy sektorni rivojlantiradi.

Zamonaviy boshqaruv nazariyasiga ko'ra, tizimning barqarorligi uning inklyuzivligi, ya'ni keng qamrovli bilan baholanadi. Jazoni ijro etish muassasalardan qaytgan yoshlarga intensiv dasturlash va dizayn kurslarini taklif qiluvchi "ikkinchi imkoniyat" loyihasi inklyuziv inson resurslarini boshqarish sohasidagi haqiqiy mahorat darslari bo'lib xizmat qiladi. Bu loyiha milliy taraqqiyotning barqaror bo'lishi uchun har bir fuqaro, o'tmishidan qat'i nazar, raqamli iqtisodiyotga hissa qo'shishi uchun zarur vositalarga ega bo'lishi lozimligini anglashga xizmat qiladi.

Prezidentning yoshlar bilan samimiy suhbatlari men uchun uchrashuvning eng unutilmas lahzasi bo'ldi. O'zbekiston rahbari har doim o'zining naqadar samimiy ekanligini va har bir insonning fikri va shaxsiyatini qanchalik qadrlashini o'z misollari bilan namoyish etadi.

Samarqand shahri 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi va xalqaro startap sammitlariga mezbonlik qilishga tayyorgarlik ko'rar ekan, yoshlarimizga yo'llangan xabar aniq: davlat imtiyozli kreditlar, soliq preferensiyalari va global diplomatik nufuz orqali ulkan imkoniyatlar maydonini yaratib bermoqda.

O'zbekistonning yosh innovatorlari uchun Prezident Mirziyoyevning zamonaviy boshqaruv yondashuvi yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Endilikda mamlakatning taraqqiyot yo'li yoshlarning innovatsiyalarga bo'lgan intilishi va Vatan ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatiga bog'liq. "Yangi O'zbekiston"da Ko'ksaroy muloqoti xulosa emas, balki mustaqil, farovon va yoshlar yetakchiligidagi kelajakka qaratilgan strategik safarbarlikdir.

Chidem TURKIYILMAZ,
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori.

Ruhiyatni davolaydigan olima

Zulfiyaxonim qizlari

Qahramonimiz – Samarqand davlat universiteti amaliy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi Tohirova Mohigul Umir qizi yaqinda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.



Chunki ko'zi ojiz, bilimga chanqoq talabalarga bitta kitob kamlik qiladi.

ORZULAR USHALGAN YIL

Shu yillar davomida 30 ta ilmiy maqola, bitta monografiyam Moldava davlatida, ingliz tilida nashr etildi. 2023-yilda ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash maqsadida rasmlari mobil ilova dasturini loyihalashtirdik. Ilova telefon orqali ishlaydi. Masalan, ko'zi ojiz insonga shifokor

retsept yozib beradi yoki qo'lga gazeta tushib qoldi. Uning yonida o'qib beradigan hech kim yo'q. Shunday vaziyatlarda ilovani ochib, kerakli matnni rasimga tushiradi va ilova uni o'qib beradi. Ushbu dasturni ham "Kitob – ko'ngil nuri" loyihasi doirasida tashkil qildik.

2025-yil PhD ilmiy darajasiga ega bo'ldim. Turk tilidan xalqaro C1 sertifikatini oldim. Shu yili Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro forumda "O'zbekistonda zamonaviy inklyuziv ta'lim istiqbollari" nomli ma'ruza bilan qatnashdim. Forumda ustozlar "Siz nafaqat bakalavrda, balki maktabda ham inklyuziv ta'limda tahsil olgansiz. Demak, siz sohaning haqiqiy ekspertisiz", deya e'tirof etishdi.

Bundan tashqari, o'tgan yili Amerika psixologlari assotsiatsiyasida xalqaro hamkorlikka saylandim. Shu yergacha yetib kelishimda davlatimizning bizga yaratgan sharoiti, oilam, turmush o'rtog'imning qo'llab-quvvatlovi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ayni paytda dars berish bilan bir qatorda Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan "Inklyuziv media klub" rahbari sifatida faoliyat olib boryapman. Ya'ni, universitetimizda tahsil olayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiylashtirish asosiy maqsadimizga aylangan. Universitetimizda 147 nafar nogironligi bor talabalar bor. Ular uchun bepul kurs tashkil qilganmiz: sun'iy intellekt, zamonaviy musiqa, tasviriy san'at, robototexnika yo'nalishtirib bormiz.

Yaqinda kiberbullingning oldini olish bo'yicha xalqaro kursni tamomladim. Yaxshi bilim, keyingi paytlarda raqamli zo'ravonlik holatlari kundan kunga ko'payib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar hamkorligida joylarda o'tkazilayotgan anjumanlarda ayollarni raqamli zo'ravonlikdan asrash chora-tadbirlari, ularga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha ma'ruza o'qiyapman.

TAFAKKUR ENG MUHIMI!

Juda ko'pchilik ko'zlarimga ko'rmay turib, shuncha darajaga qanday erishgansiz, deb savol berishadi. Mening esa javobim bita: biror faoliyatda muvaffaqiyat qozonish, nimagadir erishish uchun tafakkur, bilim kerak. Qolganini eplasa bo'ldi.

Davlat mukofotini olayotganim jarayoni kutilmaganda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib, Samarqandga kelgunimga qadar hammaning tiliga tushib bo'libman. Rostdanam, mamlakatimiz rahbarining bu qadar mehribonlik ko'rsatib, g'amxo'rlik qilishini so'z bilan tasvirlab berolmayman. Mamlakatimiz rahbari, biz, yoshlarga, xotin-qizlarga ishonch bildirishini alohida ta'kidladilar, o'zimga alohida tashakkur bildirdilar. Chekka bir qishloqdan chiqib, ozroq bo'lsa-da, nimalargadir erishgan qiz uchun bu katta baxt emasmi?

Munisa SHAMSIYEVA yozib oldi.

O'ttiz yillik MEHNAT E'TIROFI

O'ttiz yildan buyon sportning dzyudo turi bilan shug'ullanaman. Murabbiylik faoliyatimni Past Darg'om tumanidagi 1-son sport maktabida boshlaganman. O'tgan davr mobaynida qo'l ostimda O'zbekiston, Osiyo, jahon va Olimpiya o'yinlari chempionlarini tayyorladim.



Ustoz uchun eng katta yutuq shogirdining muvaffaqiyatidir.

Ayniqsa, birinchi shogirdim Diyora Keldiyorova Olimpiya o'yinlari chempioni bo'lgan ilk o'zbekistonlik ayol sportchiga aylangani nafaqat men, balki butun mamlakatimiz uchun tarixiy voqea bo'ldi. Bu g'alabadan keyin dzyudo bilan shug'ullanuvchi yoshlar soni ham ko'paydi. Prezidentimiz

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bir guruh faol xotin-qizlarni davlat mukofoti bilan taqdirladi. Ular orasida borligimni eshitib, cheksiz quvondim. Ko'p yillik mehnatim va sportni ommalashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarim yuksak e'tirof etildi. Bu men uchun katta sharaf. Shu bilan birga zimmamga mas'uliyat ham yuklaydi. Albatta, ishonchga munosib bo'lib, Diyoraga o'xshagan o'nlab, yuzlab chempion qizlarni tarbiyalash, ularning xalqaro maydonlarda yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishi uchun bor kuch-g'ayratimni safarbar etaman.

Xurshida XALIKOVA,
viloyat yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi dzyudo murabbiysi, «Sog'lom turmush» medali sohibasi.

BU FAKT!

Joriy yilning YANVAR-FEVRAL oylari davomida viloyatimiz eksportida yuqori ulushga ega bo'lgan hamkor davlatlar:

- Rossiya – 66,2 million dollar;
- Irlandiya – 53,4 million dollar;
- Afg'oniston – 12,2 million dollar;
- Xitoy – 12,2 million dollar;
- Ozarbayjon – 12,0 million dollar;
- Qozog'iston – 9,6 million dollar;
- Tojikiston – 7,7 million dollar;
- Eron – 7,3 million dollar;
- Belarus – 7,2 million dollar.
- Turkiya – 4,6 million dollar.

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) va viloyat ekologiya bosh boshqarmasi tomonidan doimiy o'tkaziladigan reydlar davomida joriy yilning dastlabki 40 kunda 47 holatda noqonuniy qum-shag'al olib chiqish aniqlandi.

Jumladan, maratori joriy qilingan Zarafshon daryosining Toyloq tumani hududidan oqib o'tuvchi o'zanida tungi vaqtda qum-shag'al aralashmasi noqonuniy qazib olinib, Urgut va Samarqand shahrini bog'lovchi yangi temir yo'l tarmog'i ustida maxsus beton moslamalar o'rnatilgan holda tashilib, "ZARAFSHON PROPRIETY SERVICE" mas'uliyati cheklangan jamiyati hududiga joylashtirilgan.

Huquqbuzarlik natijasida tabiatga 422 milliard 648 million 358 ming so'm miqdorida zarar yetkazilgan aniqlandi. Holat yuzasidan to'plangan hujjatlar belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi. Beton bo'laklari temiryo'lga qo'yilganligi yuzasidan hududiy ichki ishlar organlari tomonidan o'rganish ishlari olib borilmoqda.

40 kunda 47 ta noqonuniy holat aniqlandi

Yana bir holatda Toyloq tumanida yashovchi J.S o'z boshqaruvida bo'lgan ekskavator yordamida Zarafshon daryosidan qum-shag'alni noqonuniy qazib olib, "Kamaz" rusumli yuk mashinasiga ortib yuborayotganligi aniqlangan. Ushbu transport vositalari vaqtincha saqlash jarima maydonchasiga qo'yilib, huquqbuzarlarga tegishli chora ko'rildi.

Viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi hamda Toyloq tumani IIB bilan hamkorlikda navbatdagi reydlar tadbirlarida tumanning G'o'lba mahallasida yashovchi fuqaro F.J. tomonidan tuman hududidan oqib o'tuvchi Darg'om kanalidan noqonuniy ravishda qum-shag'al aralashmasi qazib olinayotganligi aniqlandi.

Holat yuzasidan fuqaroga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasi bilan jarima hamda 158 million 100 ming so'm tabiiy obyektlarga yetkazilgan zarar hisob-kitob qilindi. Transport vositalari vaqtincha jarima



maydoniga joylashtirildi.

Prezidentimizning 2024-yil 17-yanvardagi farmoni bilan Chirchiq, Sangzor, Zarafshon, Norin, Qashqadaryo va Surxondaryo daryolari o'zanlarida noruda materiallarni qazib olishga muddatsiz moratoriy joriy etilgan. Ushbu farmon suv havzalarini muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash hamda daryolarning tabiiy oqimi buzilishining oldini olishga qaratilgan.

Viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi boshqarmasi axborot xizmati.

Oʻzbekiston yaqin yillarda daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar qatoriga kiradi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Buning uchun strategik mega-loyihalar ishga tushiriladi. Xususan, Olmaliqda 3 ta mis boyitish fabrikasi va yangi mis eritish zavodi, Ohangaron misni qayta ishlash klasteri, Navoiy, Qoʻngʻirot va Qorakoʻlda yirik kimyo-polimer klasterlari, Toshkent va Navoiy viloyatlarida fosforit xomashyosidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonasi, Tebinbuloq va Gʻallaorolda temir ishlab chiqarish majmualari ish boshlaydi.

Garvard universitetining iqtisodiy murakkablik indeksiga koʻra, Oʻzbekiston iqtisodiyot tarmoqlari uchun kelgusida oʻzlashtirilishi tavsiya etilgan 50 ta yuqori qiymatli mahsulotlar orasida eng katta bozorga ega yoʻnalish bu avtomobilsozlik sanoatidir. Taʼkidlash joizki, avtomobillarga jahon bozoridagi talab 13 trillion dollarni tashkil etadi.

Mazkur yoʻnalishda kelgusida mamlakatimizda 4 ta nufuzli xorijiy kompaniyaning loyihalari ishga tushirilib, ishlab chiqarish hajmi yillik 1 million donaga yetkaziladi, shundan 300 mingtasini elektromobillar tashkil etadi.

Bu kabi megaloyihalar evaziga sanoatda qoʻshilgan qiymat hajmi hozirgi 20 milliard dollardan 45 milliard dollarga yetkaziladi.

Qurilish sanoatida ham katta marralar belgilangan. Xususan, ushbu sohaga kelgusida yiliga 15 milliard dollarlik investitsiyalar yoʻnaltirilib, hududlarimizda 1 millionta xonadon qurish boʻyicha rejalar belgilab olingan, shuningdek, "Mening birinchi uyim" dasturi doirasida respublikada kamida 140 mingta ijtimoiy uylar barpo etiladi.

Albatta, ushbu ulkan marralar shunchaki belgilanmagan, biz kelgusi yillarda iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini taʼminlagan holda Jahon savdo tashkiloti va boshqa yirik integratsion loyihalar-da ishtirok etish koʻzda tutilgan.

Iqtisodiy taraqqiyot boʻyicha taniqli ekspertlarning fikricha, mavjud potentsialni inobatga olgan holda Oʻzbekiston iqtisodiyoti keyingi oʻn yilliklarda mintaqadagi eng rivojlangan iqtisodiyotni qurishi va nafaqat oʻzi, balki koʻshni davlatlarni ham oʻrta rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishi mumkin.

Ushbu maqsadlar uchun 2030-yilgacha 250 milliard dollar investitsiyalar talab etiladi. Bundan 110 milliard dollarni xorijiy investitsiyalar hisobiga, 40 milliard dollarni davlat-xususiy sheriklik doirasida jalb etish koʻzda tutilgan.

Bank va moliya tizimining kreditlash hajmini hozirgi yillik 18 milliard dollardan 40 milliard dollarga yetkazish, shu bilan birga, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish (70 trillion soʻmdan 260 trillion soʻmgacha), davlat ulushi mavjud banklarni xususiy-lashtirish, moliyaviy xizmatlari va bank bozoriga yirik xorijiy banklari kirib kelishiga imkoniyat yaratiladi.

Kelgusida energetika sohasini jadal rivojlantirib, aholi va sanoatni barqaror va sifatli energiya bilan taʼminlash, shu jumladan, toza energiya manbalarini kamida 40 foizga yetkazish belgilandi. Buning uchun yuqori energiya sigʻimkor sohalar, xususan, raqamli texnologiyalar, fintex, moliyaviy xizmatlar kabi yangi tarmoqlarni rivojlantirish zarur.

IT sektorda hozirda qariyb 1 milliard dollarlik marralar zabt etilgan boʻlsa, kelgusi 5 yilda ushbu koʻrsatkichni kamida 5 karra oshirish istiqbollari mavjud.

Aholi daromadlari oʻrtasidagi

keskin tafovutlarning oldini olish, hududlarda barqaror ish oʻrinlarini yaratish, tadbirkorlik harakatini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash orqali yangi oʻrta sinf qatlamini kengaytirish va eng asosiysi, aholi farovonligini taʼminlash ham eng muhim yoʻnalishlardan hisoblanadi.

Yangi strategik maqsadlarga koʻra, bu yil kambagʻallik darajasini 2,8 foizga va ishsizlikni 4,5 foizga tushirish choralari koʻriladi. Bunda asosiy eʼtibor mahallabay ishlashga qaratilib, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash va Yangi Oʻzbekiston qiyofasini yaratish uchun 20 trillion soʻm yoʻnaltiriladi hamda mahallalarda 10 mingdan ortiq loyihalarni ishga tushirish orqali qoʻshimcha 100 mingta yangi ish oʻrinlari yaratiladi.

Yoshlar orasida ishsizlik darajasi 14 foizdan 6 foizga kamaytiriladi. Ushbu maqsadlarda 2030-yilga qadar har bir hududning demografik, tabiiy, infratuzilmaviy xususiyatlariga koʻra mehnat bozoriga ilk marotaba kirib kelayotgan 1 million nafar yoshlar munosib daromad manbaiga ega boʻlishlari uchun har tomonlama sharoit yaratiladi.

Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qoʻshilgan qiymati yuqori boʻlgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish boʻyicha ham aniq maqsadlar belgilab olingan.

Xususan, tadbirkorlarga "tayyor biznes" shaklida bino berish maqsadida sanoat ipotekasi tizimi toʻliq yoʻlga qoʻyiladi. Har bir tumanda kamida mingta ish oʻrni yaratadigan ikkitadan yangi sanoat zonalarini tashkil etiladi hamda bu maqsadlar uchun 1 milliard dollarlik Sanoatni rivojlantirish jamgʻarmasi tashkil etiladi.

Jahon bozorlariga raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirib borish maqsadida dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus eksport zonalarini tashkil qilish masalalari belgilangan. Buning natijasida eksport hajmini 2 barobarga oshirish va uning hajmini kamida 45 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari mavjud.

Qishloq xoʻjaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish boʻyicha ham bir qator aniq maqsadlar qoʻyilgan. Yaʼni, qoʻshimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qoʻllash orqali oʻzlashtirish, mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urugʻlik taʼminotini hozirgi 15 foizdan 50 foizga yetkazish koʻzda tutilgan. Natijada 2030-yilgacha bir gektardan olinadigan oʻrtacha daromad 3 ming dollardan 5 ming dollarga yetkaziladi.

Suv yetkazishdagi yoʻqotishlarning oldini olish maqsadida Turkiya tajribasi asosida yopiq quvurlar tizimini joriy etish dasturi ishlab chiqiladi. Shuningdek, 4,2 kilometrdan ortiq tuproq qoplamali kanallar toʻliq beton qoplamaga oʻtkaziladi va bu orqali yiliga 1 milliard kub metr suv tejiladi. Shuningdek, keyingi yetti yilda suv taʼminoti qoʻshimcha 1,2 million gektar yer maydonini qamrab oladi. Lalmi va oborotdan chiqib ketgan 500 ming gektar maydonni foydalanishga kiritish boʻyicha ham alohida dasturlar qilinadi.

Oʻzbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali xorijiy sayyohlar sonini 20 millionga, ichki sayyohlar sonini 30 millionga yetkazish maqsadlari belgilab olingan.

Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon

uy-joy bilan taʼminlash darajasini oshirish yoʻnalishida ham bir qator ishlar olib borilishi maqsad qilin-gan.

Jumladan, kelgusi besh yilda yurtimizda urbanizatsiya darajasi hozirgi 51 foizdan 60 foizga yetkaziladi. Bu borada birinchi qadamlar qoʻyildi, hozirgi kunda aholi zich boʻlgan hududlarda massiv qurishdan shahar qurishga oʻtiladi.

"Yangi Oʻzbekiston" mas-sivlari soni 100 taga yetkazilishi, shuningdek, tuman (shahar) larning bosh va master rejalarini 3 ta toifali (renovatsiya, rekonstruksiya va konservatsiya) zon-alarga ajratib, soddalashtirilgan tartibda hamda aholi va tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqish amaliyoti joriy etiladi. Bunda hududlar 3 ta toifali zonalariga ajratiladi.

Jumladan, renovatsiya zonalariga foydalanish muddatini oʻtab boʻlgan va maʼnan eskirgan uy-joylar, binolar, inshootlar oʻrnida yangi qurilishlar rejalashtirilgan hududlar kiradi.

Rekonstruksiya zonalarida esa mavjud uy-joylarni saqlab qolgan holda, ularning atrofida qoʻshimcha qurilishlarni amalga oshirish mumkin boʻladi.

Konservatsiya zonalarini oʻzgarishsiz, oʻz holicha saqlab qolinadigan madaniy meros obyektlari, tarixiy joylar, uylar va yashil hududlar joylashgan maydonlar hisoblanadi.

Biznes va aholi ehtiyojidan kelib chiqib, infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha yangi yondashuvlar amalga oshiriladi.

Barcha aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan toʻliq taʼminlash, elektrlashgan temir yoʻllari ulushini 2030-yilga borib 65 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Xususiy sektor ishtirokida 56 ming kilometr yoʻllarni qurish va rekonstruksiya qilish va bu uchun 6 milliard dollar yoʻnaltirish belgilangan.

Yangi stansiyalar ishga tushishi bilan 10 ming kilometr magistral va 110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlari barpo etiladi.

Transport va yoʻl infratuzilmasini rivojlantirish sohasida aviaqatnovlar soni 4 marta oshiriladi.

"Toshkent – Samarqand", "Navoiy – Buxoro" yoʻnalishlarida qoʻshimcha tezyurar temir yoʻllari va yuqori tezlikdagi magistral yoʻllar quriladi. Elektrlashgan temir yoʻllari ulushi 43 foizdan 65 foizga yetkaziladi.

6 ta yirik aeroport modernizatsiya qilinadi, xususiy aviakompaniyalar soni 10 taga yetkaziladi. 2030-yilga qadar tuman markazlaridan har bir qishloqqa – jami 5,5 ming kilometr sement-beton yoʻlga qoʻyiladi.

Xususiy sektor ishtirokida 56 ming kilometr avtomobil yoʻllari rekonstruksiya qilinadi. Yoʻlovchi va yuk tashish hajmi 3 barobar koʻpaytiriladi. Ikki yilda barcha qishloq va ovullar Internet bilan toʻliq qamrab olinib, tezligi 10 karra oshiriladi.

Monopol sohalarini bozor tamoyillariga oʻtkazish yoʻnalishida temir yoʻl xizmatlari, avtomobil yoʻllari qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xususiy sektorga oʻtkaziladi.

Muxtasar qilib aytganda, kelgusi 5 yil uchun juda ulkan, ulugʻvor maqsad va vazifalar belgilandi. Oʻtgan davrda toʻplangan bilim va tajriba bu vazifalarni oʻz vaqtida bajarish imkonini beradi.

Muhsinjon XOLMUXAMEDOV, "Ipak yoʻli" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti rektori v.b.

Salomatlik

Nega hushdan KETAMIZ?

Odam yumshoq krovatdan birdaniga turganda, kuchli hayajonlanganda yoki stressga tushganda yoki qisuvchi yoqali galstuk taqqanda, qon tomchisini koʻrganda bosh aylanib ketishi, koʻz oldi qorongʻulashishi, tanasi boʻshashib, oʻzini nazorat qilolmay qolishi, koʻngli aynib, holsizlanishi hushdan ketishning namoyon boʻlishi hisoblanadi.

Hushdan ketish bu miyada qon aylanishining buzilishi tufayli bir necha daqiqa-gacha davom etadigan qisqa muddatli hushsizlik holatidir. Miya kichik vaznaga ega boʻlsa-da, juda "ochkoʻz" organ hisoblanadi: u organizmga kirayotgan kislorodning taxminan beshdan bir qismini va shuncha glyukozani isteʼmol qiladi. Shu sababli u kislorod yetishmovchiligiga nihoyatda sezgir.

Hushdan ketishda odatda, tutqanoq xurujlari (bu holda koʻproq epilepsiya boʻladi) va nafas buzilishi komadagi kabi kuzatilmaydi. Shu sababli odam yotqizilganidan soʻng miya tezda kislorod bilan toʻyinadi va oʻziga keladi. Demak, hushdan ketish unchalik xavfli emas. Biroq u jiddiy kasalliklar belgisi boʻlishi ham mumkin, shu bois shifokorga murojaat qilib, yurakni tekshiruvdan oʻtkazish lozim. Bu holat markaziy asab tizimi kasalliklari, yurak qon-tomir kasalliklari, kamqonlik yoki qondagi qand miqdorining pastligi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

XAVFLI TIK HOLAT VA "YURAK MUAMMOLARI"

Koʻpchilik kamida bir mar-ta yotoqdan keskin turganda holsizlik, bosh aylanishi yoki koʻz oldi qorongʻilashishini his qilgan. Odam tik turganda oyoq venalari torayadi va yurakka qonni yuqoriga haydash oson-lashadi. Agar inson uzoq vaqt kasallik sababli yotib qolgan, tomirlar asab boshqaruvi buz-ilgan boʻlsa yoki uzoq vaqt qi-mirlamay oʻtirib, keyin birdan tik tursa, organizm bunga darhol moslasha olmaydi. Natijada qon bosimi tushib ketadi va ortosta-tik hushdan ketish yuz berishi mumkin.

Hushdan ketishga moyillik-ni aniqlash va vegetativ nerv tizimini baholash uchun maxsus ortostatik stolda sinov oʻtkazi-ladi. Bunda bemor avval gori-zontal holatda yotadi, keyin stol 60-80 daraja koʻtariladi. Shu paytda uning arterial bosimi, yurak urish tezligi doimiy oʻlchanadi va subyektiv hislari



qayd etiladi.

Agar ortostatik hushdan ketishda asosiy rolni miyaga ozuqa olib boruvchi "tomirlar" oʻynasa, kardiogen hushdan ketishda hal qiluvchi omil yurak - qonni haydaydigan nasos faoliyatining buzilishi hisobla-nadi. Bunday hushdan ketishlar yurak ishemik kasalligi, miokar-dit, aritmiyalar, aorta stenozida (aorta klapanlarining bitishib qolishi natijasida aortaning torayishi) va boshqa xavfli kasalliklarda uchraydi. Ularni aniqlash uchun shifokor tomoni-dan tahlil qilingan EKG yordam beradi.

HISSIYOTGA BERILUVCHAN SHIFOKORLAR VA HAYDOVCHILAR

Kanadalik olimlar tibbiyot talabalari orasida operatsiya xonasida boʻlish paytida kuza-tilgan hushdan ketish holatlari boʻyicha tadqiqot oʻtkazdi. Unda 180 talaba (106 nafari qizlar) qatnashgan. Ularning 42 foizi operatsiya xonasida oʻzini yomon his qilgan, 6 foizi esa hushidan ketgan (koʻproq qizlar). Atigi 28 foizi hushdan ketishning oldini olish usullarini bilgan, asosiy malumot manbai esa kursdoshlar boʻlgan (59 foiz). Eng koʻp qoʻllanilgan ehti-yot chorasi - och va chanqoq boʻlmaslik.

Vazovagal hushdan ketishlar oʻz-oʻzidan xavfli boʻlmasa-da, haydovchilar uchun katta xavf tugʻdiradi. Daniya va AQSH olimlari oʻtkazgan tadqiqot-da 41039 nafar (47-78 yosh) hushdan ketishga moyil be-morlar kuzatilgan. Ikki yil ichida ularning 1791 nafari avtohalo-katga uchragan, 78,1 foizida jarohtalar qayd etilgan, 6 kishi esa vafot etgan. Bu koʻrsatkich

Daniyadagi oʻrtacha avariya da-rajasidan ikki baravar yuqori.

HUSHDAN KETMASLIK UCHUN BURUNNI TORTISH

Tez-tez hushdan ketish hayot sifatini jiddiy yomon-lashtiradi, - deydi slovakialik kardiolog Marta Bavolarova. U Yevropa kardiologlar jamiya-ti konferensiyasida vazovagal hushdan ketishga qarshi oddiy usulni taklif qilgan.

U 56 va 62 yoshli ikki be-morni ortostatik stol yordami-da hushdan ketish arafasiga keltirib, qon bosimini oʻlcha-gan. Bosim pasaya boshlagan paytda bemorlardan ikki mar-ta burnini tortish yoki ogʻizni yopgan holda kuchli nafas olib, soʻng chiqarishni soʻragan. Bu harakatlar parasimpatik tizim-ning haddan tashqari faollashi-shiga yoʻl qoʻymasligi mumkin, ammo usulni koʻproq bemorlar-da sinab koʻrish kerak.

AGAR HUSHDAN KETISHNING OLDI OLINMASA...

Agar odam nafas olayotgan va puls sezilayotgan boʻlsa, uni chalqancha yotqizib, oyoqlarini koʻtarish, tor kamar yoki yo-qani boʻshatish kerak. Boshni yon tomonga burish maqsad-ga muvofiq - bu til yoki qusish massalari nafas yoʻlini toʻsib oʻziga yamasligi uchun zarur. Dim joyda boʻlsa, toza havo kiritish lozim.

Hushiga tezroq kelishi uchun sovuq suv bilan namlangan sochiqni boshiga qoʻyish, yuz-iga suv sepih yoki novshadil spirtini hidlatish mumkin. Oʻziga kelgach, darhol turgʻizmaslik kerak, ayniqsa, ortostatik hushdan ketishda. Avval bemor-ni yotqizish, keyin asta-sekin oyoqlarini polga tushirib, sekin turgʻazish tavsiya etiladi.

Agar odam 5 daqiqadan ortiq oʻziga kelmasa, darhol shifokor chaqirish zarur. Bu hushdan ketish emas, balki koma boʻlishi mumkin.

Gulruh XUDOYBERDIYEVA, Samarqand davlat tibbiyot universiteti anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasasi assistenti.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Karayev Shavkat Bozorovichga (2018-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev koʻchasi, 1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Xamidov Raxmon Aliyevichga (2025-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohkoʻchasi, 157-“B” uy. Moʻljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari boʻlimi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xalikov Yodgor Xamrakulovichga (2002-yil 2-iyulda vafot etgan)

tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 80-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Tuxtayev Tohirga (2003-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim koʻchasi, 5/1-uy.

* * *

Bulungʻur tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Jumonov Nishon Usanovichga (2024-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Bulungʻur shahri Mustaqillik maydoni.

BOBUR

SURATDAGIDEK BO'LGANMI?

Buyuk bobokalonlarimizning ko'pchiligi, aniqrog'i, shaxsiyati haqidagi bugungi ma'lumotlar chalkash. Ayrim hollarda esa o'ta ishonchsiz ko'rinadi... Masalan, temuriylar sulolasining yovqur davomchisi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ham shunday deyish mumkin.

YETUK SARKARDA

12 yoshida taxtga o'tirgan temuriy shahzoda dastlab Farg'ona, so'ng Samarqand va shu kabi boshqa mintaqalarda ham o'z davlatini mustahkamlashga harakat qilgan. Keyinroq, 1526-yilda Dehli va Agrani bosib olib, boburiylar sulolasining asoschisi bo'lgan. Shu tariqa yangi davlat — boburiylar imperiyasi barpo etilgan.

Bobur o'z davridagi yaxshi harbiy rahbarlardan biri bo'lgan. Uning yurishlari va g'alabalari zamonaviy harbiy taktika va artilleriya yadan samarali foydalangani bilan ajralib turadi. U o'z davri uchun yangi harbiy strategiya va taktikani ishlab chiqar olgan. Uning jang taktikasi borasidagi bilimlari, yangi urush texnologiyalaridan foydalanish, jang maydonidagi rejalashtirish qobiliyati qo'l ostidagi qo'shinini har doim raqibdan bir bosh baland qilib kelgan.

U "Boburnoma" asarida o'z hayoti, jumladan, yurishlari haqida samimiy va batafsil bayon qiladi.

BENAZIR IJODKOR

Ma'lumotlarga ko'ra, Bobur hayotlik chog'ida ikkita devon tuzgan. Ularning biriga Movaroun-nahr va Afg'onistonda, ikkinchisiga esa Hindistonda yozgan she'rlari kiritilgan. Bu haqda "Boburnoma"ning milodiy 1519-yildagi (hijriy 925-yil) voqealar bayonida to'xtalib: "Hofiz Mir kotibning og'a-inisi Samarqanddan kelib erdi, bu fursatta Samarqandg'a ruxsat berib, Po'lod Sultong'a devonimni yubordim", deyiladi.

Bobur devoni Sharq mumtoz lirik janrlardagi asarlar majmuasidan iborat to'plam. Hozirgi kungacha dunyo qo'lyozma fondlari va kutubxonalari Bobur devonining 9 ta qo'lyozma nusxasi borligi aniqlangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi bo'lgan "Boburnoma" asari O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan barobarida, o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi hisoblanadi.

IBRATLI O'SMIR

Aslida Boburning mashaqqatli va murakkab hayot tarzi har doim avlodlar, yoshlar uchun ibrat maktabi. Zotan, Zahiriddin Vatandan bosh olib chiqib ketishga majbur bo'lganida hali 19 yoshda bo'lgan. Afg'oniston, bugungi Pokiston, Bangladesh va Hindistonning kattagina qismini egallab, katta davlat qurganida hali 25 yoshda bo'lgan, hayot haqidagi qarashlarimizni, orzu-maqсадlarimizni bir nazardan o'tkazishni talab qiladi.

MEHRIBON OTA

Manbalarda Bobur Mirzo benihoya mehribon ota bo'lgani ta'kidlanadi. Gulrangbegim, Gelchehrabegim va Gulbadanbegim. Har bir qiziga gul bilan boshlanuvchi ism qo'yanining o'ziyoq farzandlariga munosabatining yaqqol ifodasi, deb o'ylayman. Humoyun, Komron, Mirzo Askariy va Hindolni yeri ko'kka ishonmagani shubhasiz.

Shu o'rinda bir jihat, qattiq kasal bo'lgan Humoyun uchun o'z jonini olishini so'rab Yaratganga iltijo qilishi uchun bilmadi, qanday insoniy fazilatga ega bo'lish kerak? Shubhasiz, bunday takrorlanmas mehribonlik, ayni damda mardlik Boburning shaxsiyatini yanada yorqinroq aks ettiradi

SURATDAGI BOBURLIGI ROSTMI?

Bugun bizga ko'rsatilayotgan rasmlarda buyuk sarkarda bobomiz Javoharlal Neru aytmoqchi



"Dilbar shaxs", sifatida gavdalanadi.

Ya'ni, suratlarda u keng yag'irli, Sohibqiron bobosi singari mushakdor qilib tasvirlanmagan. Vaholanki, manbalarda Bobur har gal katta daryoni ko'rganida yodiga ko'ndalangiga kesib o'tgan daryolari kelganligi ta'kidlangan. "Boburnoma"da ham Hindistondagi katta daryolarga sho'ng'ib, qararama-qarshi sohildan chiqqanligi haqida tasvirlar bor. Hech qachon maqtanchoqlik qilmagan ajdodimizning bu gaplari real faktligi tayin.

Yana bir misol, Bobur hali 17-18 yoshidayoq ikki qo'lida ikki yigitni ko'tarolgan. Voqea shunday bo'lgan: "Bobur ikki askarini quloqlab olib Samarqand devoridan yugurib o'tib ketdi".

Oilada u bolaligidan "Bobur", "Boburjon" deb erkalab chaqirilgan, bu esa asta-sekin ism sifatida mustahkamlangan. Ya'ni, bu nomni biror shoir yoki ustoz maxsus "taxallus qilib qo'yg'an" emas — xalqona laqab sifatida paydo bo'lib, keyin tarixiy nomga aylangan. Ilmiy manbalarda bu nom odatda forscha "babr yoki babur" so'zidan kelib chiqqan, deb izohlanadi va "yo'lbars" degan ma'noni anglatadi.

NERUNING BAHOSI —

"DILBAR SHAXS"

QAYERDA UCHRAYDI?

Neru o'zining mashhur tarixiy-falsafiy asari — "Hindistonni kashf etish" kitobida Bobur haqida alohida to'xtaladi.

Kitobida u Boburni kuchli sarkarda, ziyrak kuzatuvchi, tabiat va go'zallikni sevuvchi inson, samimiy va ochiq fe'lli hukmdor sifatida ta'riflaydi.

Neru Bobur shaxsiyatini tasvirlar ekan, uning xotiralari ya'ni "Boburnoma"da namoyon bo'lgan insoniylik, sezgirlik va hayotga muhabbatni alohida ta'kidlaydi. Shu bois u Boburni quruq istilochi emas, balki maftunkor (dilbar), madaniyatli shaxs sifatida ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar Neruning ushbu tavsifini ko'pincha "jozibador shaxs", "o'ziga tortadigan fe'l-atvorga ega inson" mazmunida talqin qiladi.

Nima uchun Neru Boburni shunday baholagan?

Neruning fikricha, Boburni boshqalardan ajratib turadigan jihatlari: u o'z davri hukmdorlariga xos bo'lmagan darajada o'zini ochiq yozgan. She'riyat, bog'dorchilik, me'morchilik va tabiatni sevgan. Hindistonda ke-yinchalik buyuk sivilizatsiyaga aylangan boburiylar davlatiga asos solgan.

Shu sabab Neru Boburni tarixiy shaxs sifatida ham, inson sifatida ham yuqori qadrlaydi.

O'ylashimcha, Javoharlal Neruning "dilbar shaxs" tarifi Boburning ichki olamiga nisbatan aytilgan. Bunga e'tiroz bo'lishi ham mumkin emas. Ammo Zahiriddin Muhammadning tashqi ko'rinishi, jismoniy holati suratdagidan farqli bo'lishi mumkin!

Hafiza ASLANOVA,
SamDCHTI dotsenti.
Otabek UMIROV,
talaba.

Markaziy Osiyo hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, yozma manbalar, qo'lyozma kitoblar hamda qadimiy libos namunalari o'zbek xalqlariga ega ekanini ko'rsatadi. Arxeologik qazishmalar natijasida yer ostida saqlanib qolgan qasrlar, yodgorliklar, devoriy suratlar, buyumlardagi tasvirlar va o'rta asr miniatyuralari o'tmish liboslari haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Ilmiy tahlillar esa bu manbalarning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. O'zbek milliy liboslari muayyan davr, ijtimoiy muhit, diniy qarashlar va turmush tarzi ta'sirida shakllangan. Libos tikilgan mato turi orqali uning egasi qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligi, moddiy ahvoli va turmush tarzining ayrim jihatlari bilish mumkin. Keksa avlod liboslarida ayniqsa, mato, rang va bezaklarda qadimiy an'analarga saqlanib qolgan. Shular qatorida yoqasi ochiq, yengi bilakka cha tushadigan, etigi tizzaga cha yoki undan uzun bo'lgan yaktaklar turkiy xalqlar milliy kiyimining muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ana shunday noyob namunalardan biri Amir Burunduq maqbarasidan topilgan bolalar yaktakchasidir.

"Samarqand marvaridi" deb nom olgan Shohi Zinda majmuasi nafaqat me'moriy yodgorlik, balki mashhur allomalar va sarkardalar dafn etilgan muqaddas maskandir. Bu yerda Samarqandning qariyb uch ming yillik tarixi mujassam. Xususan, ushbu majmua hududidagi Amir Burunduq maqbarasi temuriylar davrida barpo etilgan bo'lib, rivojatlarga ko'ra,

Temuriylar davriga oid noyob yaktakcha

Samarqand muzeyida saqlanmoqda



ma-qbara Amir Temurning yaqin sarkardasi Amir Burunduqqa tegishli. Uning nomi Shara-fiddin Ali Yazdiniyning "Zafarnoma" asarida ham bir necha bor tilga olingan.

Maqbarada ilk arxeologik tadqiqotlar 1925-yilda V.Yatkin tomonidan olib borilgan. Keyinchalik 1963–1998-yillarda keng ko'lamli ta'mirlash va o'rganish ishlari amalga oshiriladi. Arxeolog N.Nemseva rahbarligida dahmalar ochilib, to'qqizta qabr o'rganilgan. Ulardan biri g'arbiy qismida dafn etilgan 7–9 yoshlar chamasidagi bola jasadi olimlar e'tiborini tortdi. Bola o'z kiyimi, yaktakchasi bilan dafn etilgan edi.

Yaktakcha ingichka och jigarrang ipak matodan to'qilgan bo'lib, to'q jigarrang ip bilan qo'lda tikilgan. Matoda geometrik naqshlar, romb shaklli bezaklar mavjud bo'lib, ular monokromatik va ayrim joylarda polixrom ko'rinishda ifodalangan. Bezaklar zanjirsimon tarzda joylashgan bo'lib, romb ichi to'rt nuqta bilan to'ldirilgan. Tugmalari ipli to'qilgan to'rtli bezak — dantellardan iborat bo'lgan. Yaktakning kesimi zamonaviy yaktaklarga juda yaqin bo'lib, uning uzunligi 94 santimetr, eni taxminan 2 metrni tashkil etgan.

Matoning kelib chiqishi masalasi bahsli. Temuriylar davrida Xitoy ipaklari Samarqandga import qilingan va katta talabga ega bo'lgan. Biroq

Marv, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda mahalliy ipakchilik va to'qimachilik ham yuqori darajada rivojlangan, mahsulotlar, hatto, eksport qilingan. Shu sababli mazkur yaktak ipagi import qilinganmi yoki mahalliy ishlab

chiqarish mahsulimi — aniq xulosa qilish qiyin.

Y.Feodorovich tomonidan olib borilgan kimyoviy tahlillar matoning ipak ekanini tasdiqladi. Tadqiqot natijasida yaktakning dastlabki rangi pushti tusda bo'lib, gilos guli tasviri tushirilgan bo'lishi mumkinligi haqida xulosa qilindi. Yaktak 1966-yilda davlat Ermitaji restavratsiya ustaxonasida qayta tiklanib, so'ng Samarqand muzeyiga qaytarilgan. Bugungi kunda u muzey fondida noyob eksponat sifatida saqlanmoqda.

Bolaning o'z kiyimi bilan dafn etilishi o'rta asrlar Markaziy Osiyodagi dafn marosimlari haqida ham ma'lumot beradi. Islom qoidalariga ko'ra, odatda marhum kafanga o'rallib dafn etiladi. Faqat jangda yoki zo'rvonlik natijasida shahid bo'lganlarga o'z kiyimida ko'miladi. Shu bois bu bola tabiiy o'lim emas, balki qandaydir fojiali voqea qurboni bo'lgan bo'lishi mumkin, degan taxmin ilgari suriladi.

Navbahor DALIYEVA,
"Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi
katta ilmiy xodimi.

MAKTAB VA KUTUBXONAGA

YO'L KO'RSATKICI BO'LSA...

► Taklif

Yo'l ko'rsatkichlari umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va kutubxonalar joylashgan manzillarga yo'l boshlovchi belgilar tarzida o'rnatilsa, ma'rifatparvarlik ishiga munosib hissa qo'shilgan bo'lar edi. Chunki farzandlarimiz tarbiyasida, ayniqsa, ularning siyosiy va ijtimoiy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda bog'cha, maktab hamda kutubxona asosiy omil hisoblanadi.

Hech bir inson saboq olmasdan turib, takomil ma'naviy bilimlarni egallay olmaydi. Hayoti davomida duch bo'ladigan shaxsiy muammolar, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda yuzaga keladigan voqea-hodisalarga to'g'ri, adolati yechim topa olmaydi. Shu o'rinda barkamol avlod tarbiyasida alohi-

da o'ringa ega bo'lgan kutubxonalar mohiyati kattaligini ta'kidlamochim. Bizning bolalik va yoshlik davrimizda maktablar kutubxonasidan istalgan badiiy, hatto siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi adabiyotlarni topsa bo'lardi. O'nlab davriy nashrlar sonma-son jamlanib, tikilgan holda saqlanganligining o'zi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otar edi.

Balkim shuning uchundir, kutubxonalar doimo o'quvchilar bilan gavjum, adabiyotlar esa qo'lma-qo'l o'tib, o'qilardi. Xuddi shunday holatni qishloqlardagi kutubxonalarda ham kuzatar edik. Hozir mahallalarda kutubxonalar deyarli yo'q.

Yaqinda matbuotda urgutlik tanliqi adib Abdusaid Ko'chimov o'z qishlog'ida kutubxona ochganligi haqidagi xabar tarqaldi. Bu shoir, jurnalist va ma'rifatparvar insonning haqiqiy vatanparvarlik, elparvarlik fazilatlariga belgisi, deb qabul qildim. Qani edi bunday tashabbus har bir mahalla — qishloqda bo'lsa...

Yo'ldosh SUYUNOV,
«Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni sovrindori.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 726 nusxada chop etildi. Buyurtma 96. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda